

MILLIY QO'SHIQCHILIK SANA'ATINI TALABA YOSHLARGA O'RGAТИSHNING YANGICHA METODLARI

No'monov Iftixorjon Iqboljon o'g'li

Andijon davlat Universiteti

Sport va san'at faulketi

Musiqa san'ati kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya:

Talabalarga milliy qo'shiqchilik sana'atidan ta'lif berish jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanib musiqa mashg'ulotlarini olib borish yo'llari bayon etilgan. Bugungi tezkor davrda yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, ularni o'z ustida ko'proq ishlashga jalb etish, ta'lif berish jarayonlarida axborot komunikatsion texnologiyalaridan ko'proq foydalanish, muammoli vaziyatlardan tez chiqib ketish, o'zini-o'zi tahlil qila olishi, musiqa madaniyati darslarida ritm hissi, badiiy obrazli ijro etish, talafuzga e'tibor berish, intonatsiyani to'g'ri qo'yish, sifatli kuylash metodlari kabilar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, musiqiy faoliyat, optimal metodlar, didaktik omillar, vokal-xor ko'nikmalar, badiiy kirish so'zi, musiqaning jonli yangrashi, musiqaviy o'quv materiali.

Keyingi yillarda mamlakatimizda milliy qo'shiqchilik sana'atini rivojlantirish yo'lida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan bu sohaga katta e'tibor qaratilib, keng jamoatchilik, xususan yoshlar o'rtasida estrada san'atiga qiziqish kuchayib bormoqda, yangi-yangi ijodiy guruhlar va xonandalar maydonga chiqmoqda.

Shu bilan birga, estrada san'ati madaniyatini, milliy qo'shiqchilik sana'ati ijodkorlarining professional malakasini oshirish, yosh san'atkorlarning o'z iqtidorini to'la namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratish borasida kamchilik va nuqsonlarga ham yo'l qo'yilmoqda. Xalqimizni Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi yetuk musiqiy asarlar bilan bir qatorda, mutasaddi tashkilotlar va ba'zi milliy qo'shiqchilik sana'ati jamoalari hamda yakkaxon ijrochilarining mas'uliyatsizligi oqibatida mazmunan sayoz, badiiy jihatdan zaif qo'shiqlar ham konsert dasturlari, radio-telekanallardan o'rin olmoqda, audio-video kassetalar orqali tarqatilib, ma'naviy tarbiya ishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijodiy jamoalar va yakkaxon ijrochilarining faoliyati va repertuarlarini



muvofiqlashtirish yuzasidan Madaniyat ishlari vazirligi, “O‘zteleradio” kompaniyasi, “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi olib borayotgan ishlarni qoniqarli deb bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning aqliy qobiliyatları, iqtidorini namoyon etishi va jismoniy hamda ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”, Davlat ta’lim standartlari, umumiy o‘rta ta’limning “Milliy o‘quv dasturi” muhim ahamiyatga ega hujjatlardir.

Hozirgi zamon milliy qo‘sishchilik sana‘ati pedagogikasi fani oldida turgan muhim muammolardan biri – ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero, musiqa ta’lim-tarbiyasi ma’naviy kamolotini ta’minlovchi muhim omillaridan biri bo‘lib, inson tuyg‘ulariga ta’sir etish bilan uni ma’naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Keyingi yillarda mamlakatimizda musiqiy ta’lim-tarbiyani rivojlantirish borasida qator me’yoriy va o‘quv-uslubiy hujjatlar qabul qilindi, dasturlar tayyorlanib, darsliklar nashr ettirildi, o‘quv-metodik adabiyotlar chop etildi.¹

Musiqa o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish, talaba yoshlarning o‘zlashtirishlarini oshirish va musiqaviy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Quyidagi interfaol metodlardan bir nechta afzallikklardan foydalanishingiz mumkin:

1. Multimedia vositalar: Video, audio va grafikalar yoshlarga musiqa asoslarini o‘rganishda yordam beradi. Bu, talabalarga musiqa turlarini, tarixini va usullarini vizual qilib ko‘rish va tinglash imkoniyatini beradi.
2. Interaktiv darslar: Interaktiv darslar, talabalarga musiqa ustaliklarini oshirish uchun interaktiv savollar, o‘yinlar va mashqlar orqali o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu usul, yoshlarni qiziqish va ishtiroy etishga qo’llab-quvvatlaydi.
3. Online platformalar: Online platformalar, talabalarga musiqa o‘rganish imkoniyatini beradi va ularga boshqaruv va tajriba olish imkoniyatini beradi. Bu platformalar orqali talaba yoshlari musiqa ustaliklarini oshirish, amaliy mashqlar qilish va boshqa yoshlari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

¹ Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. O‘quv metodik qo’llanma. – T., 2009.



4. Virtual musiqa asboblar: Virtual musiqa asboblar, talaba yoshlarga musiqa qo'llanmalari bilan amaliy mashqlarni o'rganish imkoniyatini beradi. Ular, talabalarga musiqa qo'llanmalari ustida amaliy mashqlar qilish va o'zlarining ijodiyliklarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari:

- Talabalarning qatnashish darajasinioshiradi va qiziqishlarini oshiradi
- Amaliy mashqlarni yoshlarni o'zlashtirishni oshiradi.
- Talaba yoshlarga o'zlarining o'zlashtirishlarini baholash imkoniyatini beradi. Yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar barcha fanlar qatori musiqa fanlarini o'qitish ishiga ham tadbiq etilmoqda. Kelajagimiz yaratuvchilari bo'lgan yosh avlodni xar tomonlama etuk va barkamol shaxslar bo'lib etishishiga, bunday texnologiyalar asosida ta'lif berish ilgarigi ish uslublarimizga qaraganda progressiv ahamiyatga ega.

Professor F. To'rayev talaba yoshlarda musiqa san'atiga qiziqishini kuchaytirish maqsadida dars jarayonida quyidagi uslublarni qo'llashni tavsiya etadi:

1. Musiqa tinglaganda milliy va qardosh xalqlar musiqasini o'rganishda ularni o'zaro taqqoslash
2. Yevropaning cholg'u asboblari bilan milliy cholg'u sozlarimizni taqqoslash.
3. Mahalliy musiqiy materiallar asosida o'quvchilar bilimini chuqurlashtirish.

U. Tashmatov, N. Ismatova, M. Omonovalarning "O'zbek xalq qo'shiqchiligi" o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmasida darsda o'zbek xalq qo'shiqlarini o'quvchilarga o'rgatish metodlariga doir quyidagi tavsiyalarni taqdim etishadi:

- o'quvchilarda qo'shiqlarning original ijrosini kamida ikki marta eshittirish;
- o'quvchilar tomonidan kamida ikki marotaba original ijro paytida past ovozda kuylab ko'rishlarini tashkil qilish;
- musiqa cholg'usi yordamida qo'shiqlarni bo'laklarga bo'lib o'rgatish;
- o'rganilgan bo'laklarni bir-biriga bog'lash;
- o'quvchilar tomonidan kamida ikki marotaba original ijro paytida to'la ovozda kuylab ko'rishlarini tashkil qilish;
- o'quvchilar tomonidan qo'shiqlarning audio (minusovka) yordamida kuylashini tashkil etish.²

² Rasulov O'. An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi. O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – T., 2006 yil. - B.22.



Muhokamali ta'lif metodlari (o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlar hajmini aniqlash – muammolar tahlili, fanlararo aloqalarni o'rghanish, muammolarni mustaqil hal etishga tayyorlash) - bu metod musiqa darslarining musiqa tinglash faoliyat turida qo'llash uchun mos keladi masalan: Shoir Alisher Navoiy, yoki Bobur Mirzo g'azallari asosida kuylangan mumtoz ashulalar, yoki maqomlar tinglash uchun berilgan bo'lsa asar to'g'risida tushuncha berishdan oldin uning mualliflari, ya'ni sheriy matn muallifi va musiqa bastalagan bastakor to'g'risida tushuncha berish lozim. Shunday ekan Alisher Navoiy yoki Bobur ijodi to'g'risidagi talabalarning adabiyot, tarix fanlaridan olgan bilimlarini sinash va mustahkamlash maqsadida yuqorida nomlari ko'rsatilgan yoki boshqa mualliflar hayoti va ijodiga oid savollar og'zaki kartochkalar shaklida yoki test shaklida o'quvchilarga tarqatilib, berilgan javoblar orqali o'quvchilar bilimini aniqlash mumkin, lekin, shuni aytish kerakki, musiqa tinglash faoliyat turi uchun ajratilgan 5-7 minut vaqt musiqa asrini tinglash asar mualliflari, asar mazmuni to'g'risida o'quvchilarga tushuncha berish uchun etarli emas. Agar darsda savol kartochkalari test savollari orqali yoshlar bilimini oshirmoqchi yoki sinab ko'rmoqchi bo'lsak buning uchun ajratilgan vaqt ni o'zlashtirish zarur bo'ladi.

Pedagogik kvalimetriya (talabalarni AKT vositasida testdan o'tqazish) musiqa fanini o'qitishda test sinovlari asosan o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Test savollari musiqa savodi, musiqa adabiyoti va musiqa tarixi bo'yicha o'quv yili davomida o'qitilgan bilimlar ko'لامи bo'yicha tuzilib, bundan tashqariga chiqmasligi lozim, ya'ni musiqa tinglash qo'shiq kuylash, musiqa savodi kabi faoliyat turlari bo'yicha talabalarning olgan nazariy bilimlari asosida savollar tuziladi. Shuni aytish kerakki test savollari va ularga beriladigan javoblarning murakkablik darajasi oddiydan murakkabga tomon prinsipi asosida bo'lishi lozim. Savollar hajmi esa, o'quv materiali hajmiga ko'ra bo'lib, tuzilgan savollarning jami o'quv materiali ko'lamini to'liq yoritishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik trening metodi. Bu metod har bir talabaning pedagogik mahoratini, dars jarayonida yuksak fazilatlarini namoyish qila olishini bildiradi. Musiqa fani o'qituvchilari o'qish va yozishdan tashqari yuksak ijrochilik qobiliyatlarini namoyish qila olishi zarur, shuningdek, bu metod talabalarda ham tez yozish, tez o'qish grafik va jadvallarni tez chizish, musiqa darslarida notalarni tez yozish malakalarini shakllantirishni bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, talaba yoshlarning o'zlashtirishlarini oshirish va musiqaviy qobiliyatlarini



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th October - 2024

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

rivojlantirishga yordam beradi. Bu platformalar orqali talabalar musiqa ustaliklarini oshirish, amaliy mashqlar qilish va boshqa talabalar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Rasulov O‘. An’anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – T., 2006 yil. - B.22.
- 2.Сизикова С. Хоровое пение в начальных классах (методическое пособие) Dushanbe, 1988.
- 3.Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. O‘quv metodik qo‘llanma. – T., 2009.
- 4.Тельчарова Р.А. Уроки музыкальной культуры. - М., 1991.
- 5.Toshmatov U., Ismatova N., Omonova M. “O‘zbek xalq qo‘sishchiligi” (o‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanma). - T., 2015. – B. 33.
- 6.To‘rayev F. Musiqaga muhabbat. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. - T., 1996 y. 3-son. – B. 32.